



**«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b.:
O.Voxidov**

**«20» yanvar 2026 y.
№ 61**

**“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Kuzatuv
kengashi a'zolari javobgarligini sug'urtalash
bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun**

TEXNIK TOPSHIRIQ

**1. SUG'URTA QOPLAMASI /
SUG'URTA XATARI:**

Sug'urta xavflari (hodisalari) sug'urta shartnomasi loyihasiga muvofiq, sug'urta xavflari va sug'urta hodisalarining batafsil tavsifi sug'urta shartnomasi matnida keltiriladi.

Sug'urta xavfi ehtimollik va tasodifiylik belgilariga ega bo'lgan taxmin qilinayotgan hodisadir.

Quyidagilar sug'urta hodisalari hisoblanadi:

- uchinchi shaxslarga mulkiy zarar bank Kuzatuv kengashi a'zolarining sug'urtalangan shaxs sifatida o'z lavozim majburiyatlarini bajarishi va emitent davlatining qonunchiligiga muvofiq qimmatli qog'ozlar muomalasi bilan bog'liq majburiyatlarni bajarishi bilan bevosita bog'liq holda yetkazilganda;

- sug'urtalovchi sug'urtalangan shaxs ko'rgan zararlar va xarajatlarni qoplashi shart yoki shart emasligidan qat'i nazar, sug'urta muddati yoki aniqlash muddati davomida sug'urtalangan shaxsga birinchi marta taqdim etilgan sug'urtalangan shaxsning xato harakatlari tufayli javobgarlik yuzaga kelishiga olib kelgan da'volar taqdim etilganda va (yoki) bunday turdagi da'volar bilan bog'liq xarajatlarni to'lash zarurati tug'ilganda;

- sug'urtalangan shaxsning va (yoki) sug'urta qildiruvchining sug'urta muddati yoki aniqlash muddati davomida sug'urta qildiruvchiga birinchi marta taqdim etilgan xato harakatlari tufayli javobgarlik yuzaga kelishiga yoki bunday turdagi da'volar bilan bog'liq himoya xarajatlarini qoplash zaruriyatiga olib kelgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha zararlarini qoplash to'g'risidagi da'volarning taqdim etilishi;

- sug'urtalangan shaxs va (yoki) sug'urta qildiruvchi taxmin qilinayotgan sug'urta hodisalari bo'yicha da'vo qo'zg'atilishi munosabati bilan, da'vo taqdim etilgan mamlakatning qonunchiligiga muvofiq qo'yilgan hisobvaraqlarga binoan ko'rgan yoki ko'rishi lozim bo'lgan xarajatlarning yuzaga kelishi, shuningdek sug'urtalangan shaxs va (yoki) sug'urta qildiruvchining javobgarlikka olib kelmagan noto'g'ri xatti-harakati bilan bog'liq har qanday shunga o'xshash da'voning paydo bo'lishi;

- "Biznesni rivojlantirish banki" ATB Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizomga hamda "Biznesni rivojlantirish banki" ATB va bank Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq Kuzatuv kengashi a'zolari uchun belgilangan

	majburiyatlarni bajarish jarayonida sug'urtalangan shaxsning noto'g'ri harakatlari natijasida uchinchi shaxslarga mulkiy zarar yetkazganligi uchun sug'urtalangan shaxsning javobgarligi yuzaga kelishi yoki mulkiy javobgarlikka tortilishi mumkinligi; - javobgarlik yuzaga kelgan taqdirda zararni (ziyonni) qoplash majburiyati sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, sug'urtalovchining yozma roziligi bilan tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlash to'g'risidagi ajrim yoki yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi da'vo asosida belgilanadi.
2. SUG'URTA QILDIRUVCHI:	"Biznesni rivojlantirish banki" ATB
3. SUG'URTA DAVRI:	- Sug'urta muddati: sug'urta shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab 12 (o'n ikki) oy va sug'urta muddati tugaganidan keyin 6 (olti) oy ichida aniqlangan sug'urta hodisalari (sug'urta xavflari) bo'yicha sug'urta qoplamalarini o'z ichiga oladi. - Da'vo muddati: sug'urta davri tugaganidan so'ng 3 (uch) yilni tashkil etadi.
4. SUG'URTA SHARTNOMASI BO'YICHA UMUMIY SUG'URTA SUMMASI:	4 000 000 AQSh dollari , har bir hodisa uchun va jami 9 nafar bank Kuzatuv kengashi a'zosi uchun.
5. SUG'URTA HUDUDI:	Butun dunyo bo'ylab.
6. QO'LLANILADIGAN QONUNCHILIK:	Sug'urta shartnomasining har qanday talqini yoki uning talqiniga, haqiqiyiliga yoki amal qilish tartibiga oid masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan hal etiladi.
7. ISTISNOLAR:	Ushbu tanlov hujjatlarida taqdim etilgan sug'urta shartnomasi loyihasiga muvofiq.
8. XABARDOR QILISH SHARTLARI:	Sug'urta shartnomasi loyihasiga muvofiq xabarnoma sug'urtalovchiga va uning tegishli tarzda vakolat berilgan vakiliga yozma shaklda, deklaratsiyada ko'rsatilgan manzilga yoki elektron pochtaga yuboriladi.
9. VALYUTA:	Barcha o'zaro hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining to'lov sanasidagi kursi bo'yicha O'zbek so'mida amalga oshiriladi.
10. MUKOFOT TO'LOVI:	Sug'urta mukofoti ikki transh bilan bo'lib-bo'lib to'lanadi: - dastlabki to'lov - umumiy sug'urta

	mukofotining 50 (ellik) foizi miqdorida bo'lib, tomonlar sug'urta shartnomasini imzolaganidan so'ng 10 (o'n) bank kuni ichida to'lanadi; - yakuniy to'lov - umumiy sug'urta mukofotining 50 (ellik) foizi miqdorida bo'lib, buyurtmachiga xalqaro qayta sug'urtalovchining tanlov shartlariga muvofiq ushbu tavakkalchilikni qabul qilganligi to'g'risidagi tasdig'i bilan slip (kover-nota) nusxasi taqdim etilgandan so'ng 15 (o'n besh) bank kuni ichida to'lanadi.
--	--

<https://hujjat.brb.uz/?pin=aN31wS69&id=d3361d05-4aad-41fd-8827-8b50d15f2042>